QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.059

BÖLAJAK INGLIZ TILI ÖQITUVÇILARINING KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRIŞNING NEYRODIDAKTIK EKOTIZIMI

Ne’matova Nigora Soliddin qizi
Samarqand davlat çet tillar instituti öqituvçisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişning neyrodidaktik ekotizimi nazariy jihatdan asoslangan. Tadqiqotda neyrofan, pedagogika va raqamli texnologiyalar integratsiyasiga asoslangan ekotizimli yondaşuvning mazmuni hamda tarkibiy komponentlari tahlil qilingan. Tizimli yondaşuv, qiyosiy tahlil, modellaştiriş va ilmiy manbalarni tahlil qiliş metodlaridan foydalanildi. Natijada neyrodidaktik ekotizimning maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyatli va diagnostik-natijaviy komponentlari aniqlaştirildi. Tadqiqot natijalari bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantiriş hamda pedagog kadrlar tayyorlaş tizimini takomillaştirişga xizmat qiladi.

Kalit sözlar: neyrodidaktika, kasbiy-kommunikativ kompetentlik, neyrodidaktik ekotizim, ingliz tili öqituvçisi, kommunikativ kompetentlik, raqamli ta’lim, sun’iy intellekt.

Аннотация. В данной статье теоретически обоснована нейродидактическая экосистема развития профессионально-коммуникативной компетентности будущих учителей английского языка. Проанализированы содержание и структурные компоненты экосистемного подхода, основанного на интеграции нейронауки, педагогики и цифровых технологий. В исследовании использованы методы системного подхода, сравнительного анализа, моделирования и анализа научных источников. В результате определены целевой, содержательный, технологический, деятельностный и диагностико-результативный компоненты нейродидактической экосистемы. Результаты исследования могут способствовать развитию профессионально-коммуникативной компетентности будущих учителей английского языка и совершенствованию системы подготовки педагогических кадров.

Ключевые слова: нейродидактика, профессионально-коммуникативная компетентность, нейродидактическая экосистема, учитель английского языка, коммуникативная компетентность, цифровое образование, искусственный интеллект.

Annotation. This article provides a theoretical foundation for the neurodidactic ecosystem aimed at developing the professional communicative competence of future English

language teachers. The study analyzes the content and structural components of an ecosystem-based approaç integrating neuroscience, pedagogy, and digital teçnologies. Systematic approaç, comparative analysis, modeling, and scientific literature review methods were employed. The findings identified the target, content, technological, activity-based, and diagnostic-resultative components of the neurodidactic ecosystem. The results of the study may contribute to the development of professional communicative competence among future English language teachers and to the improvement of teacher education systems.

Keywords: neurodidactics, professional communicative competence, neurodidactic ecosystem, English language teacher, communicative competence, digital education, artificial intelligence.

KIRISH.Jahon ta’lim tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallaşuvi, sun’iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilişi hamda kompetensiyaviy yondaşuvning ustuvor ahamiyat kasb etişi pedagog kadrlarni tayyorlaş tizimiga yangi talablarni qöymoqda. Xususan, xorijiy tillarni öqitiş sohasida bölajak öqituvçilarning nafaqat lingvistik bilimlarini rivojlantiriş, balki ularning kasbiy-kommunikativ kompetentligini şakllantiriş zamonaviy pedagogik ta’limning dolzarb masalalaridan biri sifatida namoyon bölmoqda.

Oliy ta’lim tizimida bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy tayyorgarligini takomillaştirişga qaratilgan qator islohotlar amalga oşirilayotgan bölsa-da, kommunikativ faoliyatni samarali taşkil etiş, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalaniş hamda öquv jarayonini individuallaştiriş bilan boğliq ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Amaliyot natijalari şuni körsatadiki, kasbiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantiriş jarayonida ta’lim oluvçilarning kognitiv xususiyatlari, emotsional holati va individual örganiş uslublari har doim ham yetarli darajada hisobga olinmaydi.

Sönggi yillarda neyrofan yutuqlarining pedagogik jarayonga tatbiq etilişi natijasida neyrodidaktika fanlararo ilmiy yönaliş sifatida şakllanib bormoqda. Mazkur yondaşuv inson miyasining işlaş mexanizmlari, biliş jarayonlari va örganiş qonuniyatlarini ta’lim amaliyoti bilan uyğunlaştiriş orqali öquv jarayonining samaradorligini oşirişga xizmat qiladi. Ayniqsa, xorijiy tillarni öqitişda neyrodidaktik yondaşuvlardan foydalaniş ta’limning şaxsga yönaltirilgan, adaptiv va reflektiv xususiyatlarini kuçaytirişga imkon beradi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlarda neyrodidaktika, kommunikativ kompetentlik va raqamli ta’lim masalalari turli jihatlarda örganilgan bölsa-da, bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişning neyrodidaktik ekotizimini işlab çiqiş, uning tarkibiy komponentlari va pedagogik mexanizmlarini tizimli asosda yoritiş masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Şu munosabat bilan mazkur tadqiqotning maqsadi bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişning neyrodidaktik ekotizimini nazariy jihatdan asoslaş hamda uning tarkibiy tuzilmasini aniqlaşdan iborat. Tadqiqotning ilmiy

yangiligi neyrodidaktik, pedagogik va raqamli yondaşuvlar integratsiyasiga asoslangan neyrodidaktik ekotizim konsepsiyasining işlab çiqilgani hamda uning maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyatli va diagnostik-natijaviy komponentlari tizimlaştirilganligi bilan belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Neyrodidaktika: XXI asr ta’limining fanlararo yönalişlaridan biri sifatida neyrofan, kognitiv psixologiya va pedagogika integratsiyasi natijasida şakllandi. Uşbu yondaşuv inson miyasining işlaş mexanizmlari va örganiş jarayonlari haqidagi ilmiy bilimlarni ta’lim amaliyotiga tatbiq etişga qaratilgan. Ilk bor nemis olimi G.Preiss tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan “neyrodidaktika” tuşunçasi ta’lim jarayonini miyaning tabiiy faoliyat qonuniyatlari asosida taşkil etiş zarurligini asoslab berdi [1]. Keyinçalik T.Tokuhama-Espinosa tomonidan işlab çiqilgan “Mind, Brain and Education” (MBE) konsepsiyasi neyrofan, psixologiya va pedagogika fanlarining integratsiyalaşgan modelini taklif etib, neyrodidaktikaning metodologik asoslarini boyitdi [2].

Neyrodidaktik tadqiqotlarda ta’lim oluvçilarning individual kognitiv xususiyatlari, emotsional holati va motivatsiyasining öquv faoliyatiga ta’siri alohida ta’kidlanadi. Xususan, P.Howard-Jones ta’limda neyrofan yutuqlaridan foydalaniş ilmiy dalillarga asoslanişi lozimligini qayd etib, pedagogik amaliyotda uçraydigan neyromiflardan voz keçiş zarurligini asoslaydi [3]. E.Jensen hamda R. va G. Caine tomonidan ilgari surilgan miyaga asoslangan ta’lim (brain-based learning) konsepsiyasida emotsional xavfsizlik, multisensor öqitiş va faol iştirok samarali ta’limning muhim omillari sifatida körsatilgan [4]. Mazkur yondaşuvlar öquv jarayonini öquvçilarning neyropsixologik xususiyatlariga mos ravişda taşkil etiş imkonini beradi.

Xorijiy til ta’limida kommunikativ kompetentlik nazariyasi dastlab D. Hymes tomonidan işlab çiqilgan bölib, u tilni biliş bilan bir qatorda uni muayyan ijtimoiy vaziyatlarda qöllaş qobiliyatini ham kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin qilgan [5]. M. Canale va M. Swain kommunikativ kompetentlikni grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv hamda strategik komponentlardan iborat murakkab tizim sifatida tavsiflaganlar [6]. Keyinçalik L.Baçman kommunikativ til qobiliyati modelini işlab çiqib, lingvistik bilimlar, pragmatik kompetensiya va strategik mexanizmlarning özaro integratsiyasiga asoslangan yondaşuvni taklif etdi [7].

Yevropa Kengaşi tomonidan işlab çiqilgan CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) hujjati kommunikativ kompetentlikning zamonaviy xalqaro mezonlarini belgilab berdi. Mazkur hujjatda kommunikativ til kompetensiyasi lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik komponentlarning özaro uyğunligi sifatida talqin qilinadi [8]. CEFRning yangilangan Companion Volume naşrida esa mediatsiya, plurilingval kompetensiya va raqamli kommunikatsiya kabi yangi kompetensiyalar kiritilib, zamonaviy xorijiy til ta’limining mazmuni yanada boyitilgan [9]. Til örganişning neyrokognitiv asoslarini tadqiq etgan olimlar xotira, diqqat va emotsional omillarning çet tilini özlaştirişdagi rolini

alohida qayd etadilar. A. Baddeleyning işçi xotira modeli til materialini qabul qiliş, qayta işlaş va uzoq muddatli xotirada saqlaş jarayonlarini tuşuntirişga xizmat qilsa [10], S. Kraşenning affektiv filtr gipotezasi motivatsiya, xavotir va emotsional holatning til özlaştiriş samaradorligiga ta’sirini asoslaydi [11]. Mazkur yondaşuvlar neyrodidaktik texnologiyalarni işlab çiqişda muhim nazariy asos vazifasini bajaradi. Mamlakatimiz olimlarining ilmiy izlanişlarida ham xorijiy tillarni öqitişni takomillaştiriş, ta’limni raqamlaştiriş va innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etiş masalalari keng yoritilgan. Xususan, bölajak ingliz tili öqituvçilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantiriş, masofaviy ta’lim metodikasini takomillaştiriş hamda pedagogik diagnostika vositalaridan foydalaniş böyiça olib borilgan tadqiqotlar zamonaviy ta’lim muhitining adaptiv va integrativ xususiyatlarini asoslaşga xizmat qilmoqda [12–14]. Şuningdek, talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini elektron resurslar asosida rivojlantiriş, tanqidiy fikrlaşni şakllantiriş va raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etişga oid ilmiy izlanişlar kasbiy tayyorgarlik sifatini oşirişning muhim omillari sifatida e’tirof etiladi [15; 16].

Adabiyotlar tahlili şuni körsatadiki, neyrodidaktika, kommunikativ kompetentlik va raqamli ta’lim masalalari alohida ilmiy yönalişlarda yetarliça örganilgan bölsa-da, bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişning neyrodidaktik ekotizimini işlab çiqiş, uning tarkibiy komponentlarini aniqlaş va amaliyotga joriy etiş masalalari hali yetarli darajada tadqiq etilmagan. Şu bois mazkur tadqiqotda neyrodidaktik, kommunikativ va raqamli yondaşuvlarning integratsiyasiga asoslangan ekotizimli modelni işlab çiqiş ilmiy muammo sifatida qaraladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişning neyrodidaktik ekotizimini nazariy jihatdan asoslaş va uning tarkibiy komponentlarini aniqlaşga qaratilgan. Tadqiqot metodologik jihatdan kompetensiyaviy, tizimli, neyrodidaktik va ekotizimli yondaşuvlar integratsiyasiga asoslanadi. Uşbu yondaşuvlar pedagogik jarayonni ta’lim subyektlari, texnologiyalar va ta’lim muhiti örtasidagi özaro aloqadorlik nuqtayi nazaridan örganiş imkonini beradi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini neyrodidaktika, kommunikativ kompetentlik va xorijiy tillarni öqitiş metodikasiga oid ilmiy qaraşlar taşkil etdi. Xususan, “Mind, Brain and Education” konsepsiyasi, kommunikativ yondaşuv hamda kompetensiyaviy ta’lim tamoyillari tadqiqotning konseptual asoslari sifatida qabul qilindi. Şuningdek, zamonaviy ta’limning adaptiv va raqamli xususiyatlarini yorituvçi ilmiy qaraşlardan foydalanildi. Tadqiqotning maqsadi va vazifalaridan kelib çiqib, ilmiy izlaniş jarayonida bir-birini töldiruvçi nazariy va empirik metodlardan foydalanildi(1-jadval):

Tadqiqotning metodologik asoslari va qöllanilgan metodlar

T/r	**Metodologik yondaşuv**	**Tadqiqot metodlari**	**Qöllaniş maqsadi**
1.	**Kompetensiyaviy yondaşuv**	Tahlil, umumlaştiriş	Kasbiy-kommunikativ kompetentlik mazmunini aniqlaş

2.	**Tizimli yondaşuv**	Tizimlaştiriş, modellaştiriş	Neyrodidaktik ekotizimni işlab çiqiş
3.	**Neyrodidaktik yondaşuv**	Qiyosiy tahlil	Neyrokognitiv omillarni aniqlaş
4.	**Ekotizimli yondaşuv**	Strukturaviy-funksional tahlil	Komponentlar örtasidagi aloqalarni belgilaş
5.	**Diagnostik yondaşuv**	Sörovnoma, ekspert baholaş	Kompetentlik darajasini baholaş

Jadvaldan körinib turibdiki, tadqiqotning metodologik apparati turli yondaşuv va metodlarning özaro uyğunligiga asoslanib, tadqiqot obyektini kompleks örganiş imkonini beradi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilişning nazariy va empirik metodlari qöllanildi. Nazariy metodlar sifatida ilmiy manbalarni tahlil qiliş va sintez, qiyosiy-tahliliy yondaşuv, tizimlaştiriş, umumlaştiriş hamda modellaştiriş metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodlar asosida neyrodidaktika va kasbiy-kommunikativ kompetentlikning nazariy asoslari tahlil qilinib, bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişning neyrodidaktik ekotizimi modeli işlab çiqildi.

Empirik tadqiqot metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, suhbat, sörovnoma, ekspert baholaş va pedagogik diagnostika usullaridan foydalanildi. Uşbu metodlar bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini baholaş, mavjud holatini aniqlaş hamda neyrodidaktik yondaşuvlarning samaradorligini örganişga xizmat qildi. Tadqiqot natijalarining işonçliligini ta’minlaş maqsadida olingan ma’lumotlar statistik qayta işlaş usullari yordamida tahlil qilindi.

Tadqiqotning metodologik apparati kasbiy-kommunikativ kompetentlikni kognitiv, motivatsion, faoliyatli va refleksiv komponentlar birligida örganişga yönaltirildi. Bunda neyrokognitiv omillar, raqamli texnologiyalar va pedagogik mexanizmlarning özaro integratsiyasi asosiy metodologik tamoyil sifatida qaraldi. Mazkur yondaşuv bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişga xizmat qiluvçi neyrodidaktik ekotizimning mazmuni va tuzilişini aniqlaş imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining obyektivligi va işonçliligi ilmiy manbalar tahlilining tizimliligi, qöllanilgan metodlarning özaro uyğunligi hamda olingan natijalarning pedagogik amaliyot bilan boğliqligi orqali ta’minlandi. Şu asosda işlab çiqilgan neyrodidaktik ekotizim modeli bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişning innovatsion mexanizmi sifatida talqin qilindi. Tadqiqot metodologiyasi kasbiy-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirişga ta’sir etuvçi pedagogik, neyrokognitiv va raqamli omillarning integratsiyasiga asoslanadi.

Tadqiqot natijalari va muhokama. Tahlil natijalari neyrodidaktik ekotizimni özaro boğlangan beş komponent asosida tavsiflaş imkonini beradi: maqsadli, mazmuniy, texnologik, faoliyatli hamda diagnostik-natijaviy komponentlar. Maqsadli komponent bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişga yönaltiriladi. Mazmuniy komponent kasbiy muloqot, lingvistik bilimlar, sotsiolingvistik va pragmatik könikmalarni qamrab oladi.

Texnologik komponentda raqamli ta’lim vositalari va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan maqsadga muvofiq foydalaniş nazarda tutiladi. Faoliyatli komponent kommunikativ vazifalar, hamkorlikdagi iş, refleksiya va amaliy nutq faoliyatini birlaştiradi. Diagnostik-natijaviy komponent esa kuzatuv, sörovnoma, suhbat, ekspert baholaş va pedagogik diagnostika orqali rivojlaniş holatini aniqlaşga xizmat qiladi.

Komponentlarning özaro aloqadorligi ekotizimning asosiy xususiyatidir: diagnostika natijalari ta’lim mazmuni va faoliyatini moslaştirişga, raqamli vositalar esa individual ehtiyojlarga muvofiq ta’limni taşkil etişga yordam beradi. Mazkur tavsif nazariy tahlil va modellaştirişga asoslangan; maqolada empirik tajriba natijalari yoki statistik körsatkiçlar keltirilmagan.

Xulosa qilib aytganda, bölajak ingliz tili öqituvçilarining kasbiy-kommunikativ kompetentligini rivojlantirişda neyrodidaktik, kompetensiyaviy va ekotizimli yondaşuvlarni uyğunlaştiriş muhim nazariy imkoniyatlarga ega. Taklif etilgan tuzilma ta’lim oluvçilarning kognitiv va emotsional xususiyatlarini, kommunikativ faoliyatini hamda raqamli ta’lim muhitini özaro boğliq holda körib çiqadi. Keyingi bosqiçda modelni pedagogik amaliyotda sinovdan ötkaziş, mezon va körsatkiçlarini aniqlaştiriş hamda natijalarni empirik ma’lumotlar asosida baholaş maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Azizxöjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toşkent: Özbekiston Yozuvçilar uyuşmasi Adabiyot jamğarmasi naşriyoti, 2006. – 160 b.

2. Tokuhama-Espinosa, T. Mind, Brain, and Education Science: A Comprehensive Guide to the New Brain-Based Teaching. W. W. Norton & Company, 2011.

3. Howard-Jones, P. Introducing Neuroeducational Research: Neuroscience, Education and the Brain from Contexts to Practice. Routledge, 2010.

4. Caine, R. N., Caine, G. Making Connections: Teaching and the Human Brain. Addison-Wesley, 1991.

5. Işmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toşkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.

6. Hymes, D. On Communicative Competence. In: Pride, J. B., Holmes, J. (eds.). Sociolinguistics. Penguin, 1972.

7. Canale, M., Swain, M. Theoretical Bases of Communicative Approaçes to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1980, 1(1), 1–47.

8. Baçman, L. F. Fundamental Considerations in Language Testing. Oxford University Press, 1990.

9. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Cambridge University Press, 2001.

10. Muslimov N.A. va boşqalar. Kasb ta’limi öqituvçilarining kasbiy kompetentligini şakllantiriş texnologiyasi: monografiya. – Toşkent: Fan va texnologiya, 2013. – 312 b.

11. Xoliqov A.A. Pedagogik mahorat: darslik. – Toşkent: Iqtisod-moliya, 2011. – 420 b.

12. Baddeley, A. Working Memory, Thought, and Action. Oxford University Press, 2007.